

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

HAKIMOVA RUXSATOY BEGMURADOVNA

**TO‘DAKO‘L SUV OMBORI MAHALLIY IXTIOFAUNASI ASOSIY
OVLANADIGAN BALIQ TURLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.15 – Ixtiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Hakimova Ruxsatoy Begmuradovna

To‘dako‘l suv ombori mahalliy ixtiofaunasi asosiy ovlanadigan baliq
turlarining biologik xususiyatlari..... 3

Хакимова Рухсатой Бегмуродовна

Биологические особенности основных промысловых видов рыб местной
ихтиофауны Тудакулского водохранилища 21

Khakimova Rukhsatoy Begmurodovna

Biological characteristics of the main fish species of local ichthyofuna of
Todakol reservoir 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

HAKIMOVA RUXSATOY BEGMURADOVNA

**TO‘DAKO‘L SUV OMBORI MAHALLIY IXTIOFAUNASI ASOSIY
OVLANADIGAN BALIQ TURLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.15 – Ixtiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/B382 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyo-net» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kamilov Baxtiyar Ganiyevich
biologiya fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuzmetov Abdulaxmet Rayimberdiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Mullabayev Nodirbek Ravshanbekovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 – raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil 25 sentyabr kuni soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2 qavat, anjumanlar zalidagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks (+99871) 260-38-60, e-mail: taug-info@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (551639-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat Tel.: (+99871) 260-50-43

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil __ sentyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil __ sentyabrdagi № 15-raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengashi raisi, q.x.f.d., professor

X.A.Donayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., (PhD), dotsent

Q.J. Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, bioxilma-xillikni saqlab qolish va tabiat zaxiralaridan samarali foydalanishga dolzarb mavzu sifatida qaraladi. Suv zaxiralaridan samarali foydalanish uchun suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirish shu jumladan, baliq ovlash uchun ov ixtiofaunasini sun'iy shakllantirish borasidagi tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Suv havzalari mahsuldorligini oshirishning keyingi darajasi yaylov akvakulturasini texnologiyasi hisoblanadi. Bir qator rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida asosan rekreatsion baliqchilik uchun tijorat baliqlarini yetishtirishga muhim ahamiyat berilmoqda. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda suv havzalaridan aholi ehtiyoji uchun ovlanadigan baliqlarni yetishtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon akvakulturasida shu jumladan, mo'tadil iqlim hududida joylashgan MDH mamlakatlarida suv havzalarining ozuqa zanjiridagi har bir bo'g'idan foydalanadigan va muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq turlari tanlanadi. Suv havzasi gidroekotizimi ekologik muhitining har bo'g'inida ovlanadigan baliq turlarining mavjud bo'lishi samarali hisoblanadi. Ko'llarga boy bo'lgan (Belorussiya, Rossiya) mamlakatlarda yaylov akvakulturasini uchun maydoni kichik (200 ga.) va boshqarish oson bo'lgan ko'llardan foydalaniladi. Suv havzalari cheklangan mamlakatlar esa mavjud bo'lgan barcha suv havzalaridan foydalanishga majbur. Shu bilan birga, obyektlarni tanlashda mahalliy sharoit xususiyatlari, ko'paytirish imkoniyatlarining mavjudligi, baliqlar o'lchami va o'sishi hamda oziqlanish xususiyatlari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda keng qamrovli irrigatsiya inshootlari qurilishi natijasida reofil suv havzalarining oqim tartibi o'zgarib, letnik tipdagi suv havzalari paydo bo'ldi hamda baliq turlarining kamayib ketishiga olib keldi. XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatimizning tekislik qismidagi suv omborlarida ov ixtiofaunasini iqlimlashtirish hisobiga shakllantirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi natijada, tabiiy havzalar shu jumladan, Zarafshon daryosi havzasida, baliq mahsuldorligi gektariga – 1-2 kg.dan, 5 kg.gacha oshirildi. 2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "...suv zaxiralarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish", "chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 hissa oshirish" shuningdek, "eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yetishtirish va eksport salohiyatini oshirish" bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda mavjud irrigatsion suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirish, yangi obyektlarni o'zlashtirish orqali baliq ovlash hajmini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 1 - maydagi PQ-2939-son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi, 2018 - yil 6 - apreldagi "Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

² - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 1 -maydagi PQ-2939-son «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3657-son qarori³, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi , 2023-yil 18- avgustdagi "Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-sonli qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil 13 - sentyabrdagi 719-son "Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017 - yil 18 - oktabrdagi "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 845-son qarorlari va hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv havzalari ixtiofaunasining shakllanishi, hozirgi holatini baholash, baliqlarning morfologik va ekologik xususiyatlari, baliq zahiralardan samarali foydalanish borasida xorijlik olimlardan Kai Lorenzen (1995, 2001,2013, 2014), Huang et al (2001), Balık et al (2004), De Silva et al (2006), Kottelat et al (2007), Buj et al (2008), Naylor et al (2009), Pushpalatha et al (2009, 2015) Gozlan et al (2010), Britton et al (2011), Bohle et al (2012) va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari suv havzalaridagi muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan turlar biologiyasi, morfologik va ekologik ko'rsatkichlari, baliq zahiralardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarni Z.Ermaxanov (1984), V.Kozlov (1993), L.Kuderskiy (1995), N.Yankova (2001, 2002, 2006), S. Brajnik (2009), V.Vlasov (2012), A.Voynarovich (2014), N.Levashina (2014, 2018) va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin.

O'zbekistonda iqlimlashtiriladigan baliq turlarini tanlash, ko'chirib kelish va bu turlar birinchi avlodlari moslashuvchanligini tahlil qilish borasidagi ma'lumotlar G.Kamilov (1973), A.Amanov (1990), T.Salixov va boshqalar (2001), B. Jumaboyev (2006), M.Yuldashov (2018, 2019), B.Kamilov (2019) tadqiqotlarida keltirilgan. To'dako'l suv omborida yaylov akvakulturasini joriy qilingandan keyingi karp, oq va chipor do'ngpeshona, oq amur baliqlari biologik xususiyatlari J.Sobirov (2010, 2011), T.Kanatbayeva (2020), M.Ummatova (2020) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Biroq, ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan lekin tabiiy holatda yashaydigan turlar ularning yangi zamonaviy texnologiya ta'siridan keyingi holati o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

³- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 6 -apreldagi «Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi № 3657 – son qarori

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №1.1-2016-2019 “Xorijdan keltirilgan baliqlar va asalarilarning iqlimga moslashuvchanlik, mahsuldorlik va nasldorlik sifati” (2016-2022 yillar) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yaylov akvakulturasida texnologiyasi qo‘llanilgan sharoitda To‘dako‘l suv omboridagi muhim ovlanish obyektlari hisoblanadigan mahalliy ixtiofaunaning invaziv turlari biologik xususiyatlariga baho berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yaylov akvakulturasida yetishtirilayotgan obyektlarning suv havzasiga otkazilib ostirish tig‘izligi ko‘p marta oshgan sharoitdagi kumushtovon baliq, oqcha, amur oqchasi, oq sla baliqlarining o‘lchami, yoshi va o‘shini baholash;

obyektlarning tur uchun yangi bo‘lgan sharoitda shakllangan populyatsiyalari morfologik va morfometrik xususiyatlarini tasniflash;

yaylov akvakulturasida tartibida baliqlar jinsiy voyaga yetish xususiyatlarini o‘rganish;

o‘rganilayotgan populyatsiyalarning ko‘rsatib o‘ilgan tartibdagi serpushtlik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

o‘rganilayotgan baliq turlarini ovlash samaradorligiga baho berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida To‘dako‘l suv omboridagi kumushtovon baliq, oqcha, oq sla, baliqlari olingan.

Tadqiqotning predmeti To‘dako‘l suv omboridagi kumushtovon baliq, oqcha, oq sla baliqlarining meristik va plastik, o‘lcham, o‘sh, jinsiy voyaga yetish, serpushtlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ixtiologik tadqiqot usullari (baliqlarning morfologik xususiyatlari, qayd qiluvchi tuzilmalar tahlili, o‘sh sur‘atini qayta tiklash, jinsiy voyaga yetish, serpushtlik ko‘rsatkichlari), shuningdek, variatsion statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat;

ilk marta Zarafshon daryosi quyi oqimi suv havzasida Yevroosiyoda keng tarqalgan baliq turlarining shakllangan populyatsiyalari morfologik va morfometrik ko‘rsatkichlari aniqlangan va ularning tur o‘zgaruvchanligiga mos kelishi isbotlangan;

baliq to‘dalari o‘sh ko‘rsatkichlari aniqlangan shuningdek, mahalliy sharoitda baliqlar yoshi va o‘sh sur‘atini aniqlashda tangachalaridan qayd qiluvchi tuzilma sifatida foydalanish mumkinligi asoslangan;

turlarning yangi sharoitdagi jinsiy voyaga yetish xususiyatlari aniqlangan va o‘rganilayotgan baliq to‘dalari serpushtlik ko‘rsatkichlari baholangan;

To‘dako‘l suv omborida oq sla, oqcha, kumushtovon baliq jinsiy voyaga yetish tezligi, shuningdek, mutlaq va nisbiy serpushtlik ko‘rsatkichlari bu turlar arealida eng yuqori ekanligi aniqlangan va suv havzasi yaylov akvakulturasida sharoitida populyatsiyalarning ko‘payuvchanlik xususiyatini belgilashi, sanoat

usulida ovlashni boshqarishning samarali choralari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

To'dako'l suv omborida iqtisodiy ahamiyatiga ega bo'lgan baliq resurslari holati baholangan va baliq mahsuldorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat;

respublikamizning tekislik qismidagi yirik baliqchilik xo'jaligi misolida baliq yetishtirishning turli tartibida xo'jalik yuritilganda baliqlar o'sishida sezilarli farq bo'lishi isbotlangan;

morfologik tahlillar natijalariga ko'ra o'rganilyotgan turlar suv omborida o'z populyatsiyalarini hosil qilganligi aniqlangan va mazkur suv havzasida sanoat usulida ovlashni boshqarish choralaridan foydalanish samaradorligi asoslangan;

obyektlarning jinsiy voyaga yetishi va serpushtlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida yaylov akvakulturasida tartibida yirik o'lchamli faol ov qurollaridan foydalanish mahalliy ixtiofauna ovlash ahamiyatiga ega bo'lgan turlarining ekologik sog'lomlashishiga, ovlash hajmining hamda baliq mahsuldorligining oshishiga olib kelishi isbotlangan;

To'dako'l suv omborining hozirgi vaqtdagi baliq mahsuldorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi zamonaviy va klassik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, keng ko'lamda yig'ilgan materiallar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, olingan ma'lumotlar zamonaviy statistik dasturlar asosida tahlil qilinganligi, natijalarning yetakchi nashrlarda chop etilganligi hamda amaliy natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zarafshon daryosi quyi oqimi suv havzasida Yevroosiyoda keng tarqalgan baliq turlarining shakllangan populyatsiyalari morfologik va morfometrik ko'rsatkichlari aniqlanganligi va ularning tur o'zgaruvchanligiga mos kelishi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati suv ombori baliqlari morfologik tahlillar natijalariga ko'ra o'rganilyotgan turlar suv omborida o'z populyatsiyalarini hosil qilganligi, mazkur suv havzasida sanoat usulida ovlashni boshqarish choralaridan foydalanish samaradorligi asoslanganligi, obyektlarning jinsiy voyaga yetishi va serpushtlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida yaylov akvakulturasida tartibida yirik o'lchamli faol ov qurollaridan foydalanish mahalliy ixtiofauna ovlash ahamiyatiga ega bo'lgan turlarining ekologik sog'lomlashishiga, ovlash hajmining hamda baliq mahsuldorligining oshishiga olib kelishi isbotlanganligi, To'dako'l suv omborining hozirgi vaqtdagi baliq mahsuldorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'dako'l suv ombori mahalliy ixtiofaunasi asosiy ovlanadigan baliq turlarining biologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Navoiybaliqsanoat” MCHJ baliq pitomnigidan ovlangan bir yillik xashaki kumush tovonbaliqlar suv omborining suv osti o‘simliklariga boy bo‘lgan qo‘ltig‘iga 50 dona/1ga o‘stirish tig‘izligida o‘tkazilgan, ya‘ni yaylov akvakulturasi usuli “Navoiybaliqsanoat” MCHJ da amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024 yil 11 iyundagi 02/23-1333-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kuzda ushbu qo‘ltiqdan tanasining uzunligi 23,4-29,5 (o‘tgan yillar ko‘rsatkichi 14,5-19,8) sm., og‘irligi 800-1000 g bo‘lgan 1980 kg. qo‘shimcha baliq ovlanib, ovlash samaradorligini 130 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan.

oq sla balig‘ini tutishda qirg‘oq yaqinida katak o‘lchami 55 mm. va undan katta qo‘yma to‘rlar yordamida baliq ovlash usuli “Golden lake fish” MCHJda amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024 - yil 11- iyundagi 02/23-1333-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bitta qayiqdagi baliqchining oq sla balig‘ini ovlashi sutkasiga 3 kg.dan 7,2 kg ga oshib, ovlash samaradorligi 140 %ga, rentabellik darajasini 32,7%ga oshirish imkonini bergan;

muayyan baliq turlarining urchish joylariga ko‘chish yo‘liga erta bahorda qo‘yma to‘r qo‘yish usuli “Golden lake fish” korxonasida amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024 - yil 11- iyundagi 02/23-1333-son ma‘lumotnomasi). Natijada, suv havzasidan 2022 -yilgacha bir qayiqdagi baliqchi kuniga 9,6 kg. kumushtovon baliq, oddiy oqcha, chavoq baliqlar ovlagan bo‘lsa, 2022 -yilda bu baliqlardan o‘rtacha 16,2 kg. baliq ovlab, ovlash samaradorligini 145 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, VI bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, shuningdek ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘dako‘l suv ombori baliq mahsuldorligini oshirishning biologik asoslari”**(Adabiyotlar sharhi) – deb nomlangan birinchi bobi to‘rt qismdan iborat. Birinchi qismida O‘zbekiston suv omborlaridan baliq ovlashning biologik xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Ulardagi ixtiofauna shakllanishi tarixi jumladan, dastlab mahalliy reofil baliq turlari hisobiga shakllanadi va asta sekin limnofil baliq turlari bilan almashinishi, mahsuldorlikning oshish jarayoni yuz yillab davom etishi va oqim tartibining o‘ziga xosligi bilan bog‘liqligigi bayon etilgan. Ikkinchi qismida oxirgi yillarda jahonda baliq mahsuldorligini yanada oshirish uchun tobora rivojlanib borayotgan yangi yaylov akvakulturasini texnologiyasining (culture based fisheries) xususiyatlari bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari tahlil qilingan. Uchinchi qismda To‘dako‘l suv omborining qisqacha tasnifi keltirilib, uning joylashgan o‘rni, iqlimi, suvining harorat tartibi, suv omborining umumiy maydoni, chuqurligi, suvining kimyoviy tarkibi to‘g‘risidagi, suv omborida tarqalgan qirg‘oq oldi, suv osti o‘simlik qoplami, fitoplankton organizmlar shuningdek, suv omborining ixtiofaunasi to‘g‘risidagi adabiyot ma‘lumotlari keltirilgan. To‘rtinchi qism invaziv baliq turlari to‘dalarining shakllanish samaradorligiga bag‘ishlangan bo‘lib texnologik tomondan ov ixtiofaunasini yangi turlarni iqlimlashtirish hisobiga shakllantirishda, baliqlarni iqlimlashtirishning barcha bosqichlari o‘tishi haqida xulosa qilish uchun ko‘chirib kelingan baliqlarning holatini baholash muhim ekanligi, buning uchun ichki suv havzalari baliqlari biologiyasiga baliqchilik nuqtayi nazardan baho berishning umumqabul qilingan usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirilishi haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

“To‘dako‘l suv ombori baliqlarini o‘rganish usublari va tadqiqot manbalari” deb nomlanadigan ikkinchi bobda tadqiqot manbalari 2017-2023 yillari To‘dako‘l suv omboridan to‘plangan manbalar butun suv havzasi bo‘ylab 5 ta stansiyadan mavsumiy tarzda katak o‘lchamlari – 28, 36, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 110 mm bo‘lgan qo‘yma to‘rlar yordamida ovlandi, shuningdek, baliqchilar brigadasi tomonidan ovlangan baliqlar ham tahlil qilindi (1 – jadval).


Kumushtovon baliq va oqcha baliqlar karpsimon baliqlar oilasi vakillarini o‘lchash chizmasi bo‘yicha, oq sla balig‘ini olabug‘asimonlar oilasi vakillarini o‘lchash chizmasi bo‘yicha, shuningdek geometrik morfometriya usullar yordamida plastik belgilari o‘lchandi.

1 – jadval

Dissertatsiya tadqiqotlari davomida to‘plangan va qayta ishlangan manbalar haqida ma‘lumot (2017-2023 yillar)

| № | Baliq turi | | Namuna soni, dona. |
|----------|-------------------|------------------------------------------------|---------------------------|
| 1 | Kumushtovon baliq | <i>Carassius gibelio</i> (Bloch., 1782), | 150 |
| 2 | Oqcha | <i>Abramis brama</i> (Linnaeus 1758) | 149 |
| 3 | Oq sla | <i>Sander lucioperca</i> (Linnaeus, 1758) | 210 |
| 4 | Amur oqchasi | <i>Parabramis pekinensis</i> (Basilewsky 1855) | 83 |

Yon tomoni bilan yotqizilgan baliq tanasining yuzasi bo‘ylab 10 mo‘ljall belgilab olindi (1 – rasm). Raqamlangan fotosuratlar bo‘icha mo‘ljallar orasidagi masofa («truss»-protokol) to‘g‘ri chiziq bo‘icha “Линейка” qurilmasida, keng tarqalgan “Photoshop” dasturi yordamida o‘lchandi.




1 – rasm. To‘dako‘l suv ombori kumushtovon balig‘i misolida tanasi yuzasidagi mo‘ljallar («landmarks»).

Baliqlarning yoshini qat‘iy tarzda bir joydan yelka suzgich qanoti birinchi shu‘lasi ostidan yon chiziq ustidagi birinchi qatordan olingan tangachalardan aniqlandi. Baliqlarning yillar bo‘yicha o‘shish sur‘ati E.Lea usulida qayta tiklandi. Jinsiy voyaga yetish tezligi haqida 6-ballik shkala yordamida xulosa qilindi, individual mutlaq serpushtlik (IMS, ming dona), individual nisbiy serpushtlik (INS, dona/g tana og‘irligi) ko‘rsatkichlari aniqlandi. Sanoq ma‘lumotlari umum qabul qilingan kompyuter dasturlari yordamida variatsion statistika usulidan foydalangan holda qayta ishlandi. Bunda bir o‘zgaruvchan omil, korrelyatsion va regression tahlil usullari qo‘llanildi (barcha hisob kitoblarda $R - 0,05$ ga teng). Korrelyatsion va regression tahlillar «Microsoft Office» dasturining Exsel paketidan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

“To‘dako‘l suv ombori kumushtovon balig‘ining biologik tasnifi”- deb nomlangan uchinchi bobda ushbu invaziv turning o‘rganilgan suv havzasidagi biologik xususiyatlari va shakllangan to‘dasining ekologik ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kumushtovon baliqning tanasi kalta va baland bo‘lib kumushsimon yirik tangachalar bilan qoplangan. Og‘zi boshining uchida, qorin qismi qora rangda. Mo‘ylovlari yo‘q. Yelka va anal suzgich qanotlarining oxirgi qattiq shu‘lalarining orqa tomoni tishsimon qirrali.

Namunalardagi baliqlarning yoshi 0+ dan 5- yoshgacha bo‘lib, tanasining umumiy uzunligi – 144,3 - 452,7 mm, standart uzunligi – 113,3 - 383,0 mm, tanasining umumiy og‘irligi – 99,0 - 703,1 g ni tashkil qildi.



2 – rasm. To‘dako‘l suv omborida o‘rganilgan turlar tanasining og‘irligi (Y o‘qi, g) bilan tanasining umumiy uzunligi (X o‘qi, sm) o‘rtasidagi bog‘liqlik

Tanasining umumiy uzunligi bilan standart uzunligi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlikka yaqin: $SL(sm) = 0,819*TL(sm)+0,183$ ($r = 0,99$). tanasining umumiy uzunligi va umumiy og‘irligi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajali funksiya ko‘rinishidagi: $W = 0,0192*TL^{2,957}$ ($r = 0,95$) regressiya tenglamasi bilan tasniflanadi.

Kumushtovon baliqning morfologik belgilari quyidagicha: D III 16-18, AII 5-6, yon chizig‘idagi tangachalar soni – 26 - 28 ta, birinchi oyquloq yoyidagi ustunchalar soni – 38 - 46 ta. Plastik belgilari haqidagi ma’lumotlar 2, 3 – jadvallarda keltirilgan.

Suv havzasida kumushtovon baliq 2 - yoshida, tanasining uzunligi – 16 - 20 sm ga yetganda birinchi marta jinsiy voyaga yetadi. Ko‘payishi (urchishi) aprel oyining 20 – sanalaridan qirg‘oq yaqinidagi suv ostida qolgan o‘simliklar bor joylarda boshlanib may oyida ham ikki hafta davom etadi. Aprel oyining o‘rtalarida jinsiy voyaga yetish koeffitsienti – 7,8 - 21 % ni tashkil qiladi. Mart oyining oxirida individual mutlaq serpushtligi – 12,2-101,2 ming donani tashkil qilib, serpushtlik ko‘rsatkichi bilan tanasining o‘lchamlari o‘rtasida bog‘liqlik bor: $IMS(\text{ming dona}) = 6,42* SL(sm) - 106,65$; ($r = 0,59$). Individual nisbiy serpushtligi – 78-132 dona/g tanasining umumiy og‘irligi, bu ko‘rsatkich baliqlar tanasining o‘lchamiga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarib turadi ($r = 0,08$).

Aprel oyining boshida gonadalaridagi jinsiy yetilgan ootsitlar diametri – $1,01 \pm 0,06$ mm ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich kam o‘zgaruvchan bo‘lib ($Cv = 9,1$ %) tanasining uzunligidan qat’iy nazar o‘zgarib turadi ($r = 0,38$).

2 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi kumushtovon baliqning karpsimon baliqlar oilasi vakillarini o‘lchash chizmasi bo‘icha plastik belgilari ko‘rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko‘rsatkich | Min | Max | $X_{\text{mean}} \pm C_x$ |
|--------------------------------------|------|------|---------------------------|
| Gavdasining uzunligi | 61,2 | 84,9 | $78,39 \pm 1,00$ |
| Tumshug‘ining uzunligi | 2,3 | 5,0 | $3,70 \pm 0,15$ |
| Ko‘zining diametri | 2,7 | 5,0 | $3,97 \pm 0,12$ |
| Boshining ko‘z orqa sohasi | 10,1 | 14,9 | $12,45 \pm 0,21$ |
| Boshining uzunligi | 15,7 | 23,4 | $19,88 \pm 0,39$ |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 17,8 | 25,0 | $22,92 \pm 0,30$ |
| Tanasining nisbatan baland qismi | 32,9 | 46,7 | $41,61 \pm 0,78$ |
| Tanasining eng ingichka qismi | 12,3 | 18,7 | $16,76 \pm 0,31$ |
| Antedorsal masofa | 38,9 | 54,2 | $48,40 \pm 0,69$ |
| Postdorsal masofa | 16,7 | 29,5 | $22,24 \pm 0,58$ |
| Dum tanasining uzunligi | 11,3 | 19,0 | $16,31 \pm 0,38$ |
| D asosining uzunligi | 31,4 | 48,5 | $42,05 \pm 0,73$ |
| D eng baland qismi | 5,5 | 16,6 | $10,61 \pm 0,72$ |
| A asosining uzunligi | 7,0 | 16,9 | $12,72 \pm 0,38$ |
| A eng baland qismi | 6,6 | 16,8 | $14,21 \pm 0,51$ |
| P uzunligi | 6,9 | 19,9 | $17,52 \pm 0,53$ |
| V uzunligi | 15,2 | 22,2 | $19,53 \pm 0,31$ |
| P-V orasidagi masofa | 17,2 | 26,1 | $22,61 \pm 0,40$ |
| V-A orasidagi masofa | 23,1 | 35,3 | $31,52 \pm 0,49$ |

3 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi kumushtovon baliqning “truss-protocol” o‘lchash chizmasi bo‘yicha plastik belgilari ko‘rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko‘rsatkich | Min | Max | $X_{\text{mean}} \pm C_x$ |
|-------------|------|------|---------------------------|
| 2 - 4 | 13,7 | 21,5 | $18,69 \pm 0,31$ |
| 4 - 6 | 14,7 | 33,2 | $30,25 \pm 0,76$ |
| 6 - 8 | 30,5 | 47,2 | $41,74 \pm 0,72$ |
| 8 - 10 | 8,8 | 19,3 | $12,48 \pm 0,53$ |
| 9 - 10 | 11,8 | 19,4 | $17,40 \pm 0,36$ |
| 7 - 9 | 7,0 | 14,3 | $11,52 \pm 0,37$ |
| 5 - 7 | 8,3 | 17,0 | $13,01 \pm 0,35$ |
| 3 - 5 | 22,3 | 34,5 | $30,98 \pm 0,50$ |
| 2 - 3 | 32,9 | 47,9 | $44,57 \pm 0,56$ |
| 1 - 2 | 12,6 | 20,0 | $17,39 \pm 0,31$ |
| 1 - 4 | 17,5 | 25,6 | $23,48 \pm 0,31$ |
| 1 - 3 | 21,2 | 30,7 | $28,01 \pm 0,38$ |
| 3 - 4 | 30,9 | 44,5 | $41,41 \pm 0,53$ |

3 – jadvalning davomi

| | | | |
|--------|------|------|--------------|
| 5 - 6 | 36,3 | 55,4 | 49,09 ± 0,70 |
| 7 - 8 | 15,7 | 24,2 | 20,27 ± 0,33 |
| 4 - 5 | 48,2 | 68,8 | 64,95 ± 0,76 |
| 3 - 6 | 32,1 | 46,4 | 41,87 ± 0,68 |
| 6 - 7 | 38,4 | 55,5 | 51,71 ± 0,67 |
| 5 - 8 | 21,6 | 32,7 | 29,03 ± 0,40 |
| 7 - 10 | 17,4 | 24,7 | 22,33 ± 0,39 |
| 8 - 9 | 16,4 | 27,2 | 22,27 ± 0,50 |

Kumushtovon baliqning yosh guruhlari bo'yicha qayta tiklangan o'sish sur'ati haqidagi ma'lumotlar 4 – jadvalda keltirilgan.

4 – jadval

To'dako'l suv ombori kumushtovon balig'ining qayta tiklangan o'sish sur'ati, 2022-2023 yillar

| Yoshi, yillar | Tanasining standart uzunligi, sm | | | | N, dona |
|----------------|----------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|---------|
| | SL ₁ | SL ₂ | SL ₃ | SL ₄ | |
| 1 | 15,9 | | | | 20 |
| 2 | 10,7 | 20,7 | | | 89 |
| 3 | 10,5 | 19,1 | 25 | | 70 |
| 4 | 9,6 | 16,2 | 22,8 | 26,1 | 18 |
| o'lrta | 10,7 | 18,1 | 24,4 | 26,1 | |
| o'sishi | 10,7 | 7,4 | 6,3 | 1,7 | |

Bu bobning oxirida tadqiqot davomida olingan natijalarimiz turning arealidagi boshqa suv havzalaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilgan. Kumushtovon baliq To'dako'l suv omborida meristik ko'rsatkichlari bo'yicha kam o'zgaruvchan bo'lib turga xos bo'lgan yuqori o'sish sur'atiga ega, tez jinsiy voyaga yetadi va serpushtligi yuqori.

“To'dako'l suv omboridagi oqcha balig'ining tasnifi” - deb nomlangan to'rtinchi bobida oqcha balig'ining biologik xususiyatlari va populyatsiyasi ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Zarafshon daryosi havzasida tabiiy holatda uchramagan. 1963 yilda Urol daryosidan ko'chirib kelingan oqcha balig'ining avlodlari To'dako'l suv omboriga kelib qolgan va bu yerda o'zi uchun qulay sharoit topib ko'paya boshladi va XX asrning oxiriga kelib muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq turiga aylandi.

To'plagan namunalarimizdagi oqcha baliqlari – 149 ta bo'lib (jinslar nisbati 1:1 ga yaqin) ular – 1 - 5- yoshdagi, tanasining umumiy uzunligi – 144,3 - 61,1 mm, tanasining standart uzunligi – 113,3 - 507,0 mm, tanasining umumiy og'irligi – 27,0 - 3400,1 g bo'lgan baliqlardan tashkil topgan.

Tanasining standart uzunligi bilan umumiy uzunligi o'rtasida: $SL(\text{sm}) = 0,8527 * TL(\text{sm}) - 1,1982$ ($r = 0,99$) va tanasi umumiy og'irligi bilan standart uzunligi o'rtasida: $W(\text{g}) = 0,012 * SL^{3,165}(\text{cm})$; ($r = 0,95$) ijobiy bog'liqlik bor (2 – rasm).

To'dako'l suv omboridagi oqcha balig'ining morfologik ko'rsatkichlari quyidagicha: D II 9-10, A (I) II 24 - 27, yon chizig'idagi tangachalar soni – 47 – 54 ta. Birinchi oyquloq yoyidagi ustunchalar soni – 19 - 21 ta.

Plastik belgilari haqidagi ma'lumotlar 5,6 – jadvalda keltirilgan.

To'dako'l suv omboridagi oqcha baliqning yosh guruhlari bo'yicha qayta tiklangan o'sish sur'ati 7 – jadvalda keltirilgan. Oqcha balig'i tanasi standart uzunligining o'rtacha o'sish ko'rsatkichi quyidagicha: SL_1 – 14,1 sm, SL_2 – 25,9 sm, SL_3 – 34,0 sm, SL_4 – 49,5 sm, SL_5 – 50,2 sm.

5 – jadval

To'dako'l suv omboridagi oqcha baliqning karpsimon baliqlar oilasi vakillarini o'lchash chizmasi bo'yicha plastik belgilari ko'rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko'rsatkich | Min | Max | O'rtacha \pm Cx | Cv, % |
|--------------------------------------|------|------|-------------------|-------|
| Gavdasining uzunligi | 3,1 | 5,7 | 4,64 \pm 0,14 | 14,1 |
| Tumshug'ining uzunligi | 3,6 | 6,8 | 4,76 \pm 0,21 | 21,0 |
| Ko'zining diametri | 3,8 | 13,2 | 10,52 \pm 0,35 | 15,7 |
| Boshining ko'z orqa sohasi | 16,9 | 23,0 | 19,94 \pm 0,39 | 9,2 |
| Boshining uzunligi | 16,4 | 19,8 | 18,11 \pm 0,18 | 4,7 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 30,9 | 42,4 | 37,87 \pm 0,51 | 6,4 |
| Tanasining nisbatan baland qismi | 9,7 | 13,0 | 11,01 \pm 0,16 | 6,9 |
| Tanasining eng ingichka qismi | 53,1 | 60,8 | 57,61 \pm 0,42 | 3,4 |
| Antedorsal masofa | 30,7 | 39,3 | 34,71 \pm 0,49 | 6,6 |
| Postdorsal masofa | 11,4 | 16,7 | 13,64 \pm 0,31 | 10,6 |
| Dum tanasining uzunligi | 11,8 | 18,9 | 15,43 \pm 0,46 | 14,0 |
| D asosining uzunligi | 21,2 | 29,5 | 24,89 \pm 0,50 | 9,4 |
| D eng baland qismi | 23,6 | 30,4 | 27,39 \pm 0,36 | 6,2 |
| A asosining uzunligi | 12,7 | 18,9 | 16,39 \pm 0,33 | 9,5 |
| A eng baland qismi | 17,7 | 22,3 | 19,92 \pm 0,26 | 6,1 |
| P uzunligi | 14,1 | 18,1 | 15,87 \pm 0,26 | 7,6 |
| V uzunligi | 21,3 | 27,4 | 24,47 \pm 0,34 | 6,6 |
| P-V orasidagi masofa | 16,6 | 22,8 | 20,51 \pm 0,37 | 8,4 |
| V-A orasidagi masofa | 3,1 | 5,7 | 4,64 \pm 0,14 | 14,1 |

6 –jadval

To'dako'l suv omboridagi oqcha baliqning "truss-protocol" o'lchash chizmasi bo'yicha plastik belgilari ko'rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko'rsatkich | Min | Max | O'rtacha \pm Cx | Cv, % |
|-------------|------|------|-------------------|-------|
| 2 – 4 | 15,4 | 19,7 | 17,60 \pm 0,23 | 6,2 |
| 4 – 6 | 37,3 | 44,2 | 40,66 \pm 0,43 | 5,0 |
| 6 – 8 | 12,6 | 21,0 | 15,97 \pm 0,57 | 16,6 |
| 8 – 10 | 23,0 | 32,8 | 28,45 \pm 0,59 | 9,7 |
| 9 – 10 | 10,2 | 12,6 | 11,35 \pm 0,15 | 6,2 |
| 7 – 9 | 6,3 | 11,0 | 8,27 \pm 0,24 | 13,8 |
| 5 – 7 | 25,3 | 30,4 | 28,07 \pm 0,27 | 4,6 |
| 3 – 5 | 19,2 | 24,1 | 21,18 \pm 0,29 | 6,5 |
| 2 – 3 | 43,3 | 47,2 | 45,37 \pm 0,26 | 2,7 |

6 – jadvalning davomi

| | | | | |
|--------|------|------|--------------|------|
| 1 – 2 | 13,3 | 18,4 | 15,95 ± 0,35 | 10,4 |
| 1 – 4 | 16,4 | 20,3 | 18,86 ± 0,20 | 5,0 |
| 1 – 3 | 27,6 | 32,3 | 30,05 ± 0,28 | 4,4 |
| 3 – 4 | 35,1 | 41,0 | 38,45 ± 0,35 | 4,3 |
| 5 – 6 | 35,3 | 40,9 | 38,47 ± 0,31 | 3,8 |
| 7 – 8 | 22,9 | 30,2 | 26,24 ± 0,43 | 7,7 |
| 4 – 5 | 52,3 | 58,6 | 55,15 ± 0,34 | 2,9 |
| 3 – 6 | 34,5 | 44,8 | 39,93 ± 0,58 | 6,9 |
| 6 – 7 | 29,6 | 43,8 | 40,85 ± 0,60 | 6,9 |
| 5 – 8 | 29,0 | 33,9 | 31,88 ± 0,33 | 4,8 |
| 7 – 10 | 11,6 | 15,4 | 14,05 ± 0,21 | 6,9 |
| 8 – 9 | 27,9 | 36,2 | 32,71 ± 0,46 | 6,5 |

To‘dako‘l suv omborida oqcha balig‘i 3 – yoshida, tanasining uzunligi – 29 smga yetganda birinchi marta jinsiy voyaga yetadi. Tanasining standart uzunligi – 29 - 61 sm bo‘lgan vakillarining individual mutlaq serpushtligi – 101-798,2 ming donani, nisbiy serpushtligi – 88-352 dona/g tana og‘irligiga, aprel oyining o‘rtalarida jinsiy voyaga yetish koeffitsienti – 7,2 - 22,3 % ga teng bo‘ldi.

7 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi oqcha baliqning qayta tiklangan o‘shish sur‘ati

| Yoshi, yillar | Tanasining umumiy uzunligi, sm | | | | | N, don a |
|-------------------------|--------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-------------|
| | TL ₁ | TL ₂ | TL ₃ | TL ₄ | TL ₅ | |
| 1 | 16,5 | | | | | 39 |
| 2 | 14,8 | 26,7 | | | | 40 |
| 3 | 11,0 | 21,7 | 30,3 | | | 38 |
| 4 | 11,3 | 23,9 | 34,1 | 42,1 | | 27 |
| 5 | 10,8 | 22,2 | 31,6 | 34,9 | 44,0 | 5 |
| O‘rtacha, sm | 13,2 | 23,3 | 30,1 | 43,4 | 44,0 | |
| O‘shishi, sm/yil | 13,2 | 10,1 | 6,8 | 13,3 | 0,6 | |

Ko‘payishi qirg‘oq yaqinida suv ostida qolgan o‘simliklar bor joyda aprel oyining oxiri va may oyining boshida suv harorati – 16 °C ga yetganda sodir bo‘ladi. Nisbatan yirik bo‘lgan vakillarining individual mutlaq serpushtligi yuqori: IMS (ming dona) = 20,65 * SL(sm) – 448,7 (r = 0,81). Jinsiy yetilgan ikralarining diametri – 0,99 - 1,36 (1,009 ± 0,001) mm.

Bob yakunida tadqiqot davomida olingan oqcha balig‘i haqidagi ma‘lumotlar, turning arealidagi boshqa suv havzalari ma‘lumotlari bilan taqqoslangan. Morfologik belgilari tur ko‘rsatkichlariga mos kelishi ko‘rsatilgan. Oqcha To‘dako‘l suv omborida juda tez o‘sadi, jinsiy voyaga yetish tezligi va serpushtligi juda yuqori.

“To‘dako‘l suv ombori oq sla balig‘i va boshqa ovlanadigan baliqlar tasnifi”- deb nomlangan beshinchi bobda suv havzasidagi oq sla balig‘ining biologik xususiyatlari ko‘rsatilgan. Tur areali Baltika, Qora, Azov, Kaspiy, Orol

dengizlari havzasidagi suv havzalarini qamrab olgan. Zarafshon daryosi havzasida oq sla balig‘i yashamagan, 1960 yillarda ko‘chirib kelingan.

To‘dako‘l suv omboridan o‘rganilgan oq sla balig‘ining namunasidagi (210 dona) baliqlar tanasining umumiy uzunligi –18 - 53 sm, standart uzunligi – 15,1 - 46,9 sm, umumiy og‘irligi – 38,0 - 2360,1 g ni tashkil qildi. Standart uzunligi bilan umumiy uzunligi o‘rtasida bog‘liqlik borligi aniqlandi: $SL (sm) = 0,9181 * TL (sm) - 1,7941$ ($r = 0,99$). Tanasining umumiy og‘irligi bilan standart uzunligi o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi formula bilan tasniflanadi: $W(g) = 0,012 * SL^{3,165}(sm)$; ($r = 0,95$) (2– rasm).

Oq sla balig‘ining meristik belgilari quyidagicha: D XIII-XV, II-III 19 - 22, A II - III, 11 - 12, yon chizig‘idagi tangachalar soni – 89 - 101 ta. Plastik belgilari haqidagi ma‘lumotlar 8, 9 – jadvallarda keltirilgan.

O‘rganilgan suv omborida oq sla balig‘i 2 – yoshida, tanasining uzunligi – 20,8 - 24 sm, tanasining umumiy og‘irligi – 634 - 865 ga yetganda birinchi marta jinsiy voyaga yetadi. Tanasining standart uzunligi – 29 - 64 sm va tanasining umumiy og‘irligi – 600 - 2420 g urg‘ochi baliqlarning individual mutlaq serpushtligi – 125 - 951,4 ming donani tashkil qiladi.

8 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi oq sla baliqning olabug‘asimon baliqlar oilasi vakillarini o‘lchash chizmasi bo‘yicha plastik belgilari ko‘rsatkichlari (tanasining standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko‘rsatkich | Min. | Max | O‘rtacha | S _x | Cv. % |
|---------------------------------------------------------|------|------|----------|----------------|-------|
| Gavdasining uzunligi | 70,1 | 81,1 | 74,74 | 0,66 | 3,9 |
| Tumshug‘ining uzunligi | 4,4 | 7,3 | 5,40 | 0,17 | 13,6 |
| Ko‘zining diametri (gorizontal) | 2,5 | 5,6 | 3,56 | 0,20 | 24,6 |
| Boshining ko‘z orqa sohasi | 8,3 | 17,9 | 16,38 | 0,48 | 12,9 |
| Boshining uzunligi | 21,3 | 27,7 | 25,21 | 0,38 | 6,6 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 13,1 | 18,8 | 16,92 | 0,30 | 7,8 |
| Yuqori jag‘ suyagining uzunligi | 8,6 | 12,6 | 10,39 | 0,24 | 10,1 |
| Yuqori jag‘ suyagining kengligi | 1,8 | 2,9 | 2,46 | 0,07 | 12,9 |
| Pastki jag‘ suyagining uzunligi | 4,1 | 13,9 | 10,96 | 0,49 | 19,7 |
| Tanasining nisbatan baland qismi | 18,9 | 23,5 | 21,35 | 0,27 | 5,6 |
| Tanasining eng ingichka qismi | 7,9 | 9,6 | 8,90 | 0,11 | 5,6 |
| Antedorsal masofa | 30,4 | 39,7 | 34,00 | 0,51 | 6,5 |
| Postdorsal masofa | 39,0 | 45,1 | 41,45 | 0,42 | 4,4 |
| Anteventral masofa | 56,0 | 62,1 | 58,51 | 0,38 | 2,8 |
| Anteanal masofa | 60,8 | 69,7 | 64,28 | 0,59 | 4,0 |
| Dum tanasining uzunligi | 17,6 | 23,7 | 20,42 | 0,39 | 8,4 |
| Birinchi yelka suzgich qanoti asosining uzunligi | 19,9 | 28,1 | 25,17 | 0,47 | 8,1 |
| Ikkinchi yelka suzgich qanoti asosining uzunligi | 13,4 | 29,8 | 25,67 | 0,99 | 16,8 |
| Birinchi yelka suzgich qanotining nisbatan baland qismi | 6,1 | 10,6 | 8,41 | 0,75 | 21,8 |

8 – jadvalning davomi

| | | | | | |
|---------------------------------------------------------|------|------|-------|------|------|
| Ikkinchi yelka suzgich qanotining nisbatan baland qismi | 5,4 | 12,4 | 8,26 | 0,46 | 24,4 |
| Anal suzgich qanoti asosining uzunligi | 12,3 | 19,7 | 16,40 | 0,57 | 15,1 |
| Anal suzgich qanotining nisbatan baland qismi | 3,8 | 12,6 | 8,66 | 0,56 | 28,4 |
| P uzunligi | 13,4 | 18,8 | 16,25 | 0,29 | 7,8 |
| P asosining kengligi | 3,3 | 5,3 | 4,16 | 0,10 | 11,0 |
| V uzunligi | 15,1 | 19,6 | 17,06 | 0,28 | 7,1 |
| P va V orasidagi masofa | 34,6 | 44,4 | 39,41 | 0,61 | 6,7 |
| V va A orasidagi masofa | 30,4 | 39,0 | 34,39 | 0,54 | 6,8 |
| Anal teshigi va anal suzgich qanoti orasidagi masofa | 2,7 | 5,2 | 4,13 | 0,16 | 17,3 |

9 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi oq sla balig‘ining “truss – protocol” bo‘yicha plastik belgilari ko‘rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan %)

| Ko‘rsatkich | Min. | Max. | Xo‘rtacha. \pm S _x | Cv, % |
|-------------|------|------|---------------------------------|-------|
| 2 - 4 | 19,3 | 23,8 | 21,13 \pm 0,30 | 6,2 |
| 4 - 6 | 20,6 | 30,7 | 27,07 \pm 0,56 | 9,1 |
| 6 - 8 | 19,0 | 29,9 | 27,06 \pm 0,59 | 9,6 |
| 8 - 10 | 8,7 | 19,8 | 11,54 \pm 0,61 | 22,9 |
| 9 - 10 | 9,7 | 11,7 | 10,60 \pm 0,14 | 5,6 |
| 7 - 9 | 14,6 | 19,9 | 17,38 \pm 0,34 | 8,5 |
| 5 - 7 | 13,0 | 21,2 | 16,94 \pm 0,58 | 14,9 |
| 3 - 5 | 31,0 | 38,7 | 34,12 \pm 0,47 | 6,0 |
| 2 - 3 | 21,3 | 24,5 | 23,21 \pm 0,17 | 3,3 |
| 1 - 2 | 8,0 | 14,5 | 12,11 \pm 0,35 | 12,7 |
| 1 - 4 | 29,9 | 39,1 | 33,58 \pm 0,49 | 6,3 |
| 1 - 3 | 28,1 | 32,4 | 30,85 \pm 0,25 | 3,6 |
| 3 - 4 | 18,9 | 22,4 | 20,89 \pm 0,21 | 4,4 |
| 5 - 6 | 18,3 | 22,2 | 20,32 \pm 0,24 | 5,2 |
| 7 - 8 | 10,7 | 21,8 | 12,84 \pm 0,59 | 20,1 |
| 4 - 5 | 32,9 | 40,6 | 38,06 \pm 0,49 | 5,6 |
| 3 - 6 | 31,7 | 37,8 | 35,37 \pm 0,37 | 4,6 |
| 6 - 7 | 23,1 | 29,2 | 26,71 \pm 0,46 | 7,4 |
| 5 - 8 | 21,5 | 28,9 | 26,16 \pm 0,45 | 7,6 |
| 7 - 10 | 17,8 | 23,0 | 20,26 \pm 0,40 | 8,7 |
| 8 - 9 | 12,0 | 23,9 | 15,69 \pm 0,62 | 17,1 |

Nisbatan yirik baliqlarning mutlaq serpushtlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi: IMS (ming dona) = 25,438*SL (sm) – 607,76 (r = 0,85). Nisbiy serpushtligi – 79,3 - 528,0 (o‘rtacha 345,0) dona/g tana og‘irligi. Oq sla balig‘ining ko‘payishi fevral oyining oxirida suv harorati – 9-12 °C ga yetganda boshlanib mart oyining 20 – sanalarigacha davom etadi.

To‘dako‘l suv omborida oq sla balig‘i tez o‘sadi (10 – jadval).

10 – jadval

To‘dako‘l suv omborida oq sla balig‘ining qayta tiklangan To‘dak‘l suv omborida oq sla balig‘i o‘shish sur‘ati, 2022-2023 yillar

| Yoshi, yillar | Tanasining standart uzunligi, sm | | | | N, dona. |
|-----------------|----------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|----------|
| | SL ₁ | SL ₂ | SL ₃ | SL ₄ | |
| 1 | 23,8 | | | | 48 |
| 2 | 22,0 | 40,9 | | | 50 |
| 3 | 20,1 | 38,4 | 54 | | 10 |
| 4 | 20 | 37,2 | 63,7 | 63 | 2 |
| o‘rtacha | 22,8 | 40,6 | 54,0 | 63 | |
| o‘shishi | 22,8 | 17,8 | 13,4 | 9,0 | |

Shu bobning 5.5 bo‘limida amur oqchasi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Bu tur Zarafshon daryosi quyi oqimida ilk marta 2008 yildagi tadqiqot ovlarida kuzatilgan, 2014 yildan esa To‘dako‘l suv omboridan sanoat usulida ovlangan baliqlar ichida ko‘proq uchray boshladi.

Namunalardagi (jinslar nisbati 1:1) baliqlar yoshi – 1 dan 6 yoshgacha bo‘lib, tanasining umumiy uzunligi – 24 sm - 54,1 sm, standart uzunligi – 18 - 46,6 sm, tanasining og‘irligi – 105 - 2163 gni tashkil qildi. Tanasining umumiy uzunligi bilan umumiy og‘irligi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud:

$W = 0,005 * TL - 3,201$ ($r = 0,96$). Tanasining standart uzunligi bilan og‘irlikka nisbati quyidagi tenglama bilan tasniflanadi $TL = 1,107 * SL + 2,308$ ($r = 0,99$).

To‘dako‘l suv omborida oqcha balig‘i tez o‘sadi (11 – jadval) va yirik o‘lchamlarga yetadi buni uning sanoat usulida ovlanadigan baliqlar orasiga kirganligi bilan izohlasa bo‘ladi. 3 – yoshida birinchi marta jinsiy voyaga yetadi.

11 – jadval

To‘dako‘l suv omboridagi amur oqcha balig‘ining qayta tiklangan o‘shish sur‘ati

| Yoshi, yil | Tanasining standart uzunligi, sm | | | | | | N, dona |
|-----------------|----------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|---------|
| | SL ₁ | SL ₂ | SL ₃ | SL ₄ | SL ₅ | SL ₆ | |
| 1 | 11,9 | | | | | | 17 |
| 2 | 12,4 | 22,2 | | | | | 10 |
| 3 | 13,9 | 25,4 | 31,9 | | | | 7 |
| 4 | 13,7 | 25,1 | 33,9 | 38,9 | | | 15 |
| 5 | 12,3 | 22,5 | 30,6 | 37,9 | 41,6 | | 13 |
| 6 | 11,5 | 21,2 | 29,8 | 36,8 | 41,8 | 44,2 | 3 |
| o‘rtacha | 12,6 | 23,3 | 31,5 | 37,9 | 41,7 | 44,2 | |
| o‘shishi | 12,6 | 10,7 | 8,3 | 6,3 | 3,9 | 2,4 | |

“Mahalliy ixtiofauna baliqlari hisobiga suv havzasidan samarali foydalanishni oshirish yo‘llari” - deb nomlangan oltinchi bobda, invaziv turlar haqida xulosa berilgan. To‘dako‘l suv ombori yaylov akvakulturasida tartibida (oq va chipor do‘ngpeshona, karp shuningdek, oq amur biomeliorator sifatida yetishtiriladigan obyektlar hisoblanadi) amaldagi baliq mahsuldorligini oshirishda mahalliy ixtiofaunaning ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan ya’ni, suv havzasidagi tabiiy jarayonlar hisobiga ko‘payadigan turlar muhim rol o‘ynay boshladi.

Yaylov akvakulturası tartibi To‘dako‘l suv omboridan nisbatan ko‘proq baliq ovlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga baliq ovlash hajmining sezilarli ravishda ortishi yetishtirilayotgan baliq turlari (karp, oq va chipor do‘ngpeshona, oq amur) ham suv havzasida erkin sharoitda yashayotgan baliq turlari hisobiga amalga oshiriladi. Shuning uchun eng avval suv omborida yaylov akvakulturası tartibini shu jumladan, To‘dako‘l suv omboriga har yili bir nechta nuqtalardan baliq chavoqlarini o‘tkazib turish uchun uning qirg‘og‘idagi baliq pitomnigi faoliyatini qayta tiklashni tavsiya qilamiz.

XULOSA

“To‘dako‘l suv ombori mahalliy ixtiofaunasi asosiy ovlanadigan baliq turlarining biologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Zarafshon daryosi havzasi uchun invaziv bo‘lgan oq sla, kumushtovon baliq, oqcha baliqlar To‘dako‘l suv omborida ko‘payadigan populyatsiyalarini shakllantira oldi va muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlarga aylandi.

2. To‘dako‘l suv omboridagi kumushtovon baliq morfologik ko‘satkichlari: D III 16-18, A II 5-6, yon chizig‘idagi tangachalar soni (l.l) – 26-28 ta, birinchi oyquloq yoyidagi ustunchalar soni (sp.br) – 38-46 ta. Yuqori o‘shish sur‘atiga ega ($SL_1 - 10,7$ sm, $SL_2 - 18,1$ sm, $SL_3 - 24,4$ sm, $SL_4 - 26,1$ sm), 2 –yoshida jinsiy voyaga yetadi, individual mutlaq serpushtligi – 12,2 - 101,2 ming dona, nisbiy serpushtligi – 78 - 132 dona/g tana og‘irligi.

3. Oqcha balig‘ida: D II 9-10, A (I) II 24-27, l.l. - 47-54 tangacha, sp.br. - 19 - 21 ustuncha. Yuqori o‘shish sur‘atiga ega ($SL_1 - 14,1$ sm, $SL_2 - 25,9$ sm, $SL_3 - 34,0$ sm, $SL_4 - 49,5$ sm, $SL_5 - 50,2$ sm), 3-yoshida jinsiy voyaga yetadi, individual mutlaq serpushtligi – 101,0 - 798,2 ming dona, nisbiy serpushtligi – 88 - 352 dona/g tana og‘irligi.

4. Oq sla balig‘ida: D XIII-XV, II-III 19 - 22, A II – III, 11 – 12, l.l. – 89 - 101 tangacha. Yuqori o‘shish sur‘atiga ega ($SL_1 - 22,8$ sm, $SL_2 - 40,6$ sm, $SL_3 - 54,0$ sm, $SL_4 - 63,0$ sm), 2 – yoshida jinsiy voyaga yetadi, individual mutlaq serpushtligi 125,0 – 951,4 ming dona, nisbiy serpushtligi – 79,3 - 528 dona/g tana og‘irligi.

5. Amur oqchasi suv havzasida to‘dasi shakllangan, o‘shishi tez ($SL_1 - 12,6$ sm, $SL_2 - 23,3$ sm, $SL_3 - 31,5$ sm, $SL_4 - 37,9$ sm, $SL_5 - 41,7$ sm, $SL_6 - 44,2$ sm), 3 –yoshida jinsiy voyaga yetadi.

6. To‘dako‘l suv omboridagi oqcha, oq sla va kumushtovon baliq turlarining geografik o‘zgaruvchanligi turning plastikligi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi, o‘zgaruvchanlik ko‘rsatkichlari tur doirasidan tashqariga chiqmaydi.

7. Suv havzasida yaylov akvakulturası tartibi yo‘lga qo‘yilganda va katak o‘lchami yirik ov qurollari bilan ovlanganda barcha ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlarning ovlanish hajmi sezilarli darajada oshadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАКИМОВА РУХСАТОЙ БЕГМУРАДОВНА

**БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОСНОВНЫХ ПРОМЫСЛОВЫХ
ВИДОВ РЫБ МЕСТНОЙ ИХТИОФАУНЫ ТУДАКУЛЬСКОГО
ВОДОХРАНИЛИЩА**

03.00.15 – Ихтиология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2019.3.PhD/В382

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.tdaу.uz), Республиканском научном сельскохозяйственном библиотеке, Национальном информационном агентстве Узбекистана а также на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Камиллов Бахтияр Ганиевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кузметов Абдулахмет Райимбердиевич
доктор биологических наук, профессор
Муллабаев Нодирбек Равшанбекович
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация: Бухарский государственный Университет


Защита диссертации состоится 25 сентября 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученой степени PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом административное здание Ташкентского государственного аграрного университета, 2-этаж, конференцзал) Тел: (+99871) 260-48-00, факс (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag-info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за №551639) Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом здание ИРЦ ТашГАУ, 1-этаж. Тел: (+99871) 260-50-43

Автореферат диссертации разослан ___ сентября 2024 года.

(реестр протокола рассылки №15 от ___ сентября 2024 года).




Ш.Р.Умаров
Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.с/х.н., профессор


Х.А.Донаев
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.с/х.н., доцент


К.Ж.Шакиров
Председатель разового Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.с/х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

